

MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINI SOLIQLAR ORQALI TARTIBLASHTIRISH MASALALARI

Hamrayev M.S

KIUT Samarqand filiali «Iqtisodiyot» kafedrası dotsenti

Tanaqulov Javohir

KIUT Samarqand filiali MRF-s-124U guruh magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq tushumlarining byudjet moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi hal qiluvchi roli asoslab berilgan hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish va hududlar kesimida daromadlarni barqarorlashtirish bo'yicha nazariy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjet, soliq tushumlari, moliyaviy barqarorlik, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, soliq bazasi, fiskal siyosat, hududiy moliyaviy mustaqillik, soliq ma'murchiligi.

Аннотация: В данной статье обоснована решающая роль налоговых поступлений в обеспечении финансовой устойчивости бюджета, а также разработаны теоретико-практические выводы по совершенствованию налогового администрирования и стабилизации доходов в разрезе регионов.

Ключевые слова: местный бюджет, налоговые поступления, финансовая устойчивость, прямые налоги, косвенные налоги, налоговая база, фискальная политика, региональная финансовая самостоятельность, налоговое администрирование.

Abstract: This article substantiates the decisive role of tax revenues in ensuring budgetary financial stability and develops theoretical and practical conclusions aimed at improving tax administration and stabilizing revenues across regions.

Keywords: local budget, tax revenues, financial stability, direct taxes, indirect taxes, tax base, fiscal policy, regional financial independence, tax administration.

Soliqlar mahalliy byudjet daromadlarining asosiy manbai bo'lib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, moliyaviy mustaqilligi va byudjet barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mahalliy byudjetlar daromad bazasining barqarorligi, avvalo, soliq tushumlarining muntazamligi va yetarliligi bilan belgilanadi. Shu bois, hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat moliya tizimining izchil ishlashini ta'minlash nuqtai nazaridan soliq tushumlarini samarali tartibga solish dolzarb masala hisoblanadi.

Mahalliy byudjet daromadlari tarkibida soliq tushumlari yetakchi o'rin tutadi. Ularning shakllanishi iqtisodiyotning real sektori rivojlanish darajasi, soliq bazasining kengligi, hududdagi tadbirkorlik sub'ektlari soni hamda soliq ma'murchiligining samaradorligiga bevosita bog'liq.

Mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, kommunal infratuzilma va boshqa mahalliy ahamiyatga ega yo'nalishlar moliyalashtiriladi.

Demak, soliq tushumlarining barqarorligi nafaqat moliyaviy ko'rsatkich, balki aholi turmush darajasi va ijtimoiy farovonlikning ham muhim omilidir.

Hududlar iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, tarmoq tarkibi va tadbirkorlik faolligi bo'yicha sezilarli farqlarga ega. Ayrinim hududlarda:

- Soliq bazasining torligi;
- Iqtisodiy faollikning pastligi;
- Yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi mahalliy byudjet daromadlarini cheklab, markazlashgan transfertlarga bog'liqlikni kuchaytiradi. Natijada hududlarning moliyaviy mustaqilligi pasayadi.

Mahalliy byudjet daromadlarini soliqlar orqali samarali tartiblashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Soliq bazasini kengaytirish – yangi xo'jalik sub'ektlarini ro'yxatga olish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish.

2. Hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish – sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish.

3. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish – raqamlashtirish, elektron hisob-kitob tizimlarini kengaytirish.

4. Mahalliy soliqlar ulushini oshirish – mol-mulk, yer va resurs soliqlarini samarali boshqarish.

5. Rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish – yuqori daromad ko'rsatkichlariga erishgan hududlarni qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan taqdirlash.

Soliqlar byudjet daromadlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy moliyaviy instrument hisoblanadi. Soliq tushumlarining barqaror o'sishi byudjet daromadlarining uzluksizligini ta'minlab, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini o'z vaqtida moliyalashtirishga xizmat qiladi. Mazkur holatni 2021–2024 yillarda davlat byudjetining solikli daromadlari 1-jadvalda soliqlarning byudjet daromadlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi tahlilidan ko'rish mumkin. 2020–2024 yillar davomida soliqlar byudjeti daromadlari hajmining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, jami daromadlar 2020 yilda 132 938,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 274 423 mlrd so'mga yetgan.

Bu esa besh yil davomida qariyb ikki barobar o'sishni ifodalab, soliqlar byudjeti daromadlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ijobiy dinamika mavjudligini ko'rsatadi. 2021–2024 yillar davomida soliqlar byudjeti daromadlarida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilib, mazkur davrda jami daromadlar hajmi 164 799,4 mlrd so'mdan 274 423 mlrd so'mgacha o'sib, 60,1 foizlik o'sishni tashkil etdi. Bu holat soliq tushumlarining davlat byudjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashdagi hal qiluvchi rolini namoyon etadi.

1-jadval

Davlat byudjetining solikli daromadlari tahlili ⁵

T/R	Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2021 yilga nisbatan 2024 yilgi
		yillik	yillik	Yillik	yillik	

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 25 dekabrda O'RQ-1105-sonli «2026 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni.

						o'sish %
	Daromadlar	164 799,4	201 863,7	231 721,3	274 423	60,1
1	Bevosita soliqlar	58 930,4	64 447,1	73 103,6	90 833	64,9
2	Foyda solig'i	38 363,3	37 649,9	40 778,9	52 620	72,9
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	18 917,7	24 284,5	29 917,4	35 384	53,5
4	Aylanmadan olinadigan soliq	1 649,4	2 512,7	2 407,3	2 829	58,3
5	Bilvosita soliqlar	56 290,4	71 390,2	83 325,8	88 341	63,7
6	Qo'shilgan qiymat solig'i	38 439,0	52 189,4	57 885,3	59 280	64,8
7	Aksiz solig'i	13 086,5	13 455,0	15 834,4	19 060	68,7
8	Bojxona boji	4 764,9	5 745,7	9 606,1	10 001	47,6
9	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	23 036,4	23 912,8	28 079,5	36 363	63,4
10	Mol-mulk solig'i	2 457,3	4 015,4	5 097,7	6 805	36,1
11	Yer solig'i	4 082,8	5 305,9	6 890,1	8 216	49,7
12	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	15 811,9	13 887,4	15 300,3	20 170	78,4
13	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	684,4	704,1	791,4	1 173	58,3
14	Boshqa daromadlar	26 542,2	42 113,7	47 212,5	58 886	45,1

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2024 yillar davomida davlat byudjetining umumiy daromadlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2021 yilda 164 799,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 274 423 mlrd so'mga yetgan. Bu esa 2021 yilga nisbatan 2024 yilda 60,1 foizlik o'sishni tashkil etib, soliq tushumlari byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2021–2024 yillarda byudjet daromadlari tarkibida bevosita soliqlar tushumlari 58 930,4 mlrd so'mdan 90 833 mlrd so'mgacha o'sib, 64,9 foizlik ijobiy dinamikani namoyon etgan. Ushbu o'sishda asosiy ulush foyda solig'i (72,9 foiz) hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (53,5 foiz) hissasiga to'g'ri keladi. Bu holat iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faolligi oshganini, shuningdek aholi daromadlari o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkichlar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda soliq bazasining kengayib borayotganini anglatadi.

Yuqoridagi 2021–2024 yillar ma'lumotlari asosida davlat va mahalliy byudjet daromadlarining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa-da, hududlar kesimidagi nomutanosiblik, soliq bazasining yetarli darajada safarbar etilmagani va ayrim soliqlar tarkibidagi tafovutlar ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni talab etadi. Quyida mazkur tahlil natijalariga asoslangan ilmiy-amaliy takliflar keltiriladi.

- har bir hududning soliq salohiyatini YAIM tarkibi, tarmoq ixtisoslashuvi, bandlik darajasi va iste'mol hajmi asosida baholovchi integral ko'rsatkich joriy etish zarur. Bevosita

solliqlarning 64,9 foizga o'sishi iqtisodiy faollik bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Demak, hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida soliq tushumlarini prognozlash samaradorlikni oshiradi.

-tahlillarga ko'ra, foyda solig'i 72,9 foizga o'sgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich iqtisodiy sikllarga sezgir hisoblanadi. Shuning uchun mahalliy byudjetlarda mol-mulk va yer soliqlarining barqaror ulushini oshirish, resurs soliqlaridan tushumlarni hududlarda qisman qayta taqsimlash mexanizmini kuchaytirish, bevosita soliqlar tushumlarining minimal kafolatlangan ulushini belgilash lozim.

-qo'shilgan qiymat solig'ining 64,8 foizga o'sishi ichki aylanmaning kengayganini ko'rsatadi. Shu bois, hududlarda elektron hisob-faktura va onlayn-kassa tizimlarini to'liq joriy etish, "Soliq izi" (tax traceability) tizimini takomillashtirish va naqd pulsiz to'lovlar ulushini oshirish orqali QQS bazasini kengaytirish zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021–2024 yillarda soliq tushumlari barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib, davlat byudjeti daromadlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Soliqlar nafaqat markaziy, balki mahalliy byudjetlar barqarorligining ham poydevori hisoblanadi.

Mahalliy byudjet daromadlarini soliqlar orqali tartibga solish hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, transfertlarga qaramlikni kamaytirish va ijtimoiy sohalarini barqaror moliyalashtirish imkonini beradi. Shu bois, soliq salohiyatini oshirish va soliq ma'murchiligini takomillashtirish mahalliy moliya siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 25 dekabrda O'RQ-1105-sonli «2026 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 29 iyundagi 445sonli «Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida»gi qarori

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi PQ3917sonli «Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash choratadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi PF5075sonli «Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish choratadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi PQ3042sonli «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida»gi Qarori.